XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RAQAMLASHTIRISH ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARI .....	1030
<b>Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li</b>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ОЦЕНКИ И АНАЛИЗА ПОКАЗАТЕЛЕЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ СФЕРЫ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ «ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ» .....	1036
<b>Хайдарова Дилдора Жахонгир кизи</b>	
ТЕОРИЯ ОРГАНИЗАЦИИ ИСЛАМСКОГО СТРАХОВАНИЯ И ЕГО СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ НА ПРИМЕРЕ БЛИЖНЕВОСТОЧНЫХ СТРАН.....	1040
<b>Гаффоров Шухрат Насриевич</b>	
BANKLARDA ICHKI NAZORAT TIZIMI SAMARADORLIGINING MOLIVAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI.....	1047
<b>Nurmuxammedov Abdijabbar Yunusovich</b>	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BAHOLASHNING EKONOMETRIK MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1054
<b>Normamatova Sitara Nozim qizi, Raxmanov Mexridin Sindarovich</b>	



JAHON SAVDO TASHKILOTI TALABLARI DOIRASIDA MAMLAKATIMIZ KORXONALARINING XALQARO RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH XUSUSIYATLARI.....	1059
<b>Masharipova Manzura Alimbayevna</b>	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI....	1067
<b>Dusmatov Begmuxammad Olimjonovich, Mirzaahmedov Mirziyo Ulug'bek o'g'li</b>	
XO'JALIK YURITUVCHI BIZNES SUBYEKTLARI BIZNES MUHITI RIVOJLANISHIGA DAVLATNING TA'SIRI..	1072
<b>Xazratov Abror Panjiyevich, Muratkulov Xumoyun Dilshodovich</b>	
YASHIL XIZMATLAR SOHASINING MOHIYATI, IJTIMOIIY-IQTISODIY FUNKSIYASI VA BARQAROR RIVOJLANISHDAGI O'RNI .....	1077
<b>Y.M. Xalikov</b>	
ASALARICHILIK XO'JALIKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING XUSUSIYATLARI .....	1085
<b>Ishturdiyev Hasan Abdigapparovich</b>	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН .....	1091
<b>Мухторов М. Н., Каримова А. М.</b>	
«HR BUSINESS PARTNER» КАК ИНСТРУМЕНТ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ПЕРСОНАЛОМ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА .....	1098
<b>Дониерова Фотимабону Алишер кизи</b>	
KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI UCHUN REAL VAQT REJIMIDA DINAMIK RISK-PROFILGA ASOSLANGAN KREDIT LAYOQATINI BAHOLASHNING ADAPTIV MODELI (DRP-KREDIT MODELI)...	1109
<b>Hamroyeva Sabina Ismoil qizi, Ismailov Dilshod Anvarjonovich</b>	
QISHLOQ HUDUDLARIDA AGROBIZNES TUZILMALARINI RIVOJLANTIRISH BORASIDAGI XORIJIY TAJRIBA VA UN DAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	1115
<b>Yoqubjonov Ibrohim G'olibjon o'g'li</b>	
INFLYASIYA VA BUDJET XARAJATLARI: ASOSIY BOG'LIQLIKLAR.....	1118
<b>Izbosarov Bobur Baxriddinovich, Umirov Sherzod Baxriddinovich</b>	
KICHIK BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASHDA SOLIQ SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....	1124
<b>Bakirov Kobiljon Mamatyusupovich</b>	
АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ.....	1128
<b>Уктамов Альберт Жасурович Bakirov Kobiljon Mamatyusupovich</b>	
КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ КОМПЛЕКСНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ: СНИЖЕНИЕ РИСКОВ, УКРЕПЛЕНИЕ КАПИТАЛЬНОЙ БАЗЫ И ЛИБЕРАЛИЗАЦИЯ АКТИВОВ.....	1135
<b>Эгамова Махфурат Эсановна</b>	
ФАЗООБРАЗОВАНИЕ И ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА МАГНИЕВОГО ОКСИХЛОРИДНОГО ЦЕМЕНТА, СИНТЕЗИРОВАННОГО ИЗ КАУСТИЧЕСКОГО ДОЛОМИТА.....	1141
<b>Абылова Амина, Сайпов Абат, Бекбосынова Рысгул, Абылов Женис</b>	
HUDUDLARDA MADANIY TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING BOSHQARUV USULLARI	1150
<b>Shohruzbek Ruziyev</b>	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA SIRKULYAR IQTISODIYOT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI .....	1156
<b>Xalikulova Gulzada Tojmuratovna, Kuziyeva Nargiza Ramazanovna</b>	



# BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA SIRKULAR IQTISODIYOT TEKNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

**Xalikulova Gulzada Tojmuratovna**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, DSc

**Kuziyeva Nargiza Ramzanovna**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Annotatsiya.** Maqolada barqaror rivojlanish, sirkulyar iqtisodiyot va “yashil” logistika konsepsiyalarining zamonaviy iqtisodiyotdagi ahamiyati tahlil qilinib, ekologik barqarorlikni ta’minlash zarurati ortib borayotgan sharoitda qayta tiklanadigan resurslardan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash, qayta foydalanish va chiqindsiz ishlab chiqarishga asoslangan iqtisodiy modellarni rivojlantirish masalalari ko’rib chiqilgan. Shuningdek, sirkulyar iqtisodiyot texnologiyalarini joriy etishning nazariy asoslari, kompaniyalar faoliyatini ekologiyalashtirish zarurati hamda mas’uliyatli ishlab chiqarish va iste’mol madaniyatini shakllantirishning ustuvor yo’nalishlari asoslab berilgan.

**Kalit so’zlar:** sirkulyar iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, yashil texnologiyalar, atrof-muhit, ekologiya.

**Abstract.** The article analyzes the importance of the concepts of sustainable development, circular economy, and green logistics in the modern economy and examines the issues of developing economic models based on the use of renewable resources, recycling, reuse, and waste-free production under conditions of environmental challenges. In addition, the theoretical foundations for the implementation of circular economy technologies, the necessity of greening company activities, and the priority directions for forming a culture of responsible production and consumption are substantiated.

**Keywords:** circular economy, sustainable development, green technology, environment, ecology.  
**Аннотация.** В статье проанализировано значение концепций устойчивого развития, циркулярной экономики и «зелёной» логистики в современной экономике, а также рассмотрены вопросы развития экономических моделей, основанных на использовании возобновляемых ресурсов, переработке отходов, повторном использовании и безотходном производстве в условиях экологических проблем. Кроме того, обоснованы теоретические основы внедрения технологий циркулярной экономики, необходимость экологизации деятельности компаний, а также приоритетные направления формирования культуры ответственного производства и потребления.

**Ключевые слова:** циркулярная экономика, устойчивое развитие, зелёные технологии, окружающая среда, экология.

## KIRISH

Atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va iqtisodiy o’sishning ekologik barqarorligini ta’minlash bugungi kunda jahon iqtisodiyotining ustuvor vazifalaridan biriga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, resurs tejamkor texnologiyalar, chiqindilarni qayta ishlash, qayta foydalanish va yashil logistika tamoyillarini iqtisodiyot tarmoqlariga joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, kuchayib borayotgan raqobat sharoitida korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish bilan bir qatorda ekologik mas’uliyatni ta’minlash ham strategik vazifaga aylanib bormoqda. Bu esa davlat, biznes subyektlari va fuqarolik jamiyati institutlarining o’zaro hamkorligi asosida kompleks yondashuvlarni talab etadi. O’zbekistonda ham mazkur masalaga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF–21-son<sup>1</sup> Farmoni bilan tasdiqlangan yangilangan “O’zbekiston – 2030” strategiyasida yashil iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy etish, resurslardan samarali foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash va chiqindilar hajmini qisqartirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [1]. Shuningdek, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O’zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o’zgarishi vazirligi huzuridagi Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish

1 <https://lex.uz/ru/docs/-8050769?ONDATE=17.02.2026%2000#-8052203>



chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining qabul qilinishi mamlakatda sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini amaliyotga joriy etishning institutsional asoslarini yanada mustahkamladi [2]. Mazkur qaror chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish, ikkilamchi resurslardan samarali foydalanish, qayta ishlash sanoatini rivojlantirish hamda resurs tejamkor texnologiyalarni iqtisodiyot tarmoqlariga keng tatbiq etishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Shu jihatdan, sirkulyar iqtisodiyot mexanizmlarini rivojlantirish va ularning amaliy samaradorligini oshirish masalalari nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ham dolzarb ilmiy tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu bois iqtisodiyot tarmoqlarida ekologik yo'naltirilgan texnologiyalarni qo'llash, ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlarini modernizatsiya qilish hamda chiqindilarni iqtisodiy aylanmaga qayta jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Olib borilgan tadqiqot natijalari iqtisodiy faoliyat ko'lamining kengayishi va atrof-muhitga ta'sir kuchayib borayotgan sharoitda sharoitida resurs tejamkor va ekologik barqaror texnologiyalarni rivojlantirishning nazariy hamda amaliy asoslarini chuqur o'rganish zarurligini tasdiqladi. Mazkur yondashuv nafaqat ekologik muammolarni yumshatishga, balki milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotning nazariy va metodologik asosini barqaror rivojlanish, sirkulyar iqtisodiyot, yashil logistikani o'rganishga bag'ishlangan mahalliy va xorijiy amaliyot tahlili tashkil etadi. Barqaror rivojlanish konsepsiyasining asosiy qoidalari Ye.A. Starikova, T.V. Uskova, N. Kalashnik, Ye.I. Levina, N.A. Osinsev, shuningdek, A. Makkinnon, G. Vismet, S. Sauv, Sh. Yakubov ishlarida o'rganib chiqilgan. Sirkulyar iqtisodiyot konsepsiyasining nazariy va amaliy jihatlari N.M. Serbulova, N.V. Paxomova, A.V. Grebenkin, D.V. Valko, A. Xeshmati, J. Kirxgerr, J. Morgan, A.S. Soliyev, S.S. G'ulomov tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan.

### Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda barqaror rivojlanish sharoitida sirkulyar iqtisodiyot texnologiyalarini joriy etishning zamonaviy tendensiyalarini o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy manbalarni tahlil qilish, qiyosiy taqqoslash, tizimli yondashuv, umumlashtirish hamda mantiqiy tahlil usullari qo'llanildi. Xususan, sirkulyar iqtisodiyot va yashil iqtisodiyot konsepsiyalarining mazmun-mohiyatini yoritishda mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda normativ-huquqiy hujjatlar o'rganildi. Turli mamlakatlarda sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish tajribasi qiyosiy tahlil qilinib, ularning iqtisodiy va ekologik samaradorligi baholandi. Tadqiqotda tizimli yondashuv asosida sirkulyar iqtisodiyotning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlari o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi. Shuningdek, resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va qayta foydalanish texnologiyalarining barqaror rivojlanishga ta'siri umumlashtirildi. Tahlil jarayonida O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyot va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini rivojlantirishga qaratilgan strategik dasturlar hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlar o'rganilib, ularning amaliy ahamiyati baholandi. Olingan natijalar asosida sirkulyar iqtisodiyot texnologiyalarini keng joriy etishning ustuvor yo'nalishlari va istiqbollari yuzasidan ilmiy xulosalar shakllantirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Shuni ta'kidlash joizki, sirkulyar iqtisodiyotning ikkinchi nomi ham uchraydi, bu aylanma iqtisodiyot bo'lib, u resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va iqlim o'zgarishi biznesga keltirishi mumkin bo'lgan beqarorlik ta'sirini yumshatishga qaratilgan sanoat modelidir [3]. U ham operatsion, ham strategik afzalliklarga ega bo'lib, iqtisodiy, biznes, ekologik va ijtimoiy sohalarida qiymat yaratish uchun ulkan salohiyatni birlashtiradi. O'z mohiyatiga ko'ra, yopiq sikl iqtisodiyoti modeli chiqindilarni istisno qilishga qaratilgan [4]. Ushbu maqsadga erishish uchun mahsulotlar uzoq muddat xizmat qilishga mo'ljallangan (yaxshi sifatli materiallardan foydalaniladi) va qismlarga ajratish hamda qayta foydalanish sikli uchun optimallashtirilgan bo'lib, bu ulardan foydalanish va ularni o'zgartirish yoki yangilashni osonlashtiradi. Pirovard maqsad cheklangan zaxiralarni nazorat qilish va qayta tiklanadigan resurslar oqimini muvozanatlash orqali tabiiy kapitalni saqlash va ko'paytirishdir. Sirkulyar iqtisodiyot uzoq tarixga ega. 1960-yillarda britaniyalik iqtisodchi Kennet Boulding "Kelajak Yer kosmik kemasi iqtisodiyoti" kitobida Yerni "yopiq kosmik kema" deb tavsiflagan. Uning ta'kidlashicha, Yer cheklanmagan resurslar va ifloslanishga bardosh berish hamda resurslarni qazib olish bo'yicha cheksiz qobiliyatga ega bo'lgan kosmik kemaga o'xshash yopiq sferadir, shu sababli odamlar Yerning ekologik sikllariga moslashib, resurslarni qayta ishlash usullarini topishlari kerak.

Keyinchalik, 1970-yillarda Rim klubi "O'sish chegaralari" konsepsiyasini ilgari surdi, unga ko'ra insoniyat faqat ishlab chiqarish va iste'molni cheklash orqali o'zining omon qolishini ta'minlashi mumkin. Bulardan tashqari, aylanma iqtisodiyotning rivojlanishiga boshqa nazariyalar ham ta'sir ko'rsatdi. 1990-yillardan boshlab iqtisodiy rivojlanish tobora ko'proq resurslarni qazib olishga bog'liq bo'lib qoldi va shu bilan atrof-muhitning

ifloslanishini oshirdi. Binobarin, odamlar yopiq sikl iqtisodiyotiga asosan siyosat vositalari va harakatlar rejalarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish-sotish zanjirlari va ma'lum mahsulotlar logistikasini boshqarish hamda ijtimoiy, tashkiliy va texnologik innovatsiyalarni joriy etish uchun murojaat qila boshladilar. "Sirkulyar iqtisodiyot" tushunchasining asosiy ta'riflarini keltiramiz (1-rasm).

N.V.Paxomova, K.K. Rixter, M.A.Vetrova "sirkulyar iqtisodiyot" atamasini tiklanuvchi va yopiq xususiyatga ega bo'lgan iqtisodiyot sifatida talqin qiladilar. Unga birlamchi xom ashyo iste'molini va qayta ishlanadigan resurslar hajmini minimallashtirish xos bo'lib, bu bir vaqtda tegishli poligonlar va tartibsiz chiqindi joylari egallagan hududlarni qisqartirishda chiqindilarni ko'mishga yuborilishini kamaytirish bilan ham bog'liq.


N.M.Serbulova, A.S.Gorodnyanskaya, S.V.Kanurniy ushbu atamaning biroz o'zgartirilgan talqinini taklif etadilar, ya'ni aynan: sirkulyar iqtisodiyot - bu tiklanuvchi yoki regenerativ ishlab chiqarish tizimidir. Ushbu yondashuv "xizmat muddati tugashi" konsepsiyasini ta'mirlash bilan almashtirishni nazarda tutadi, energiyaning qayta tiklanuvchi manbalaridan foydalanishga e'tiborni qaratishni ta'minlaydi, mahsulotlarni qayta ishlatishga to'sqinlik qiladigan zaharli kimyoviy moddalardan foydalanishni butunlay istisno qiladi va materiallar, mahsulotlar, tizimlar hamda umuman biznes modelining konstruktiv xususiyatlarini yaxshilash orqali chiqindilarni bartaraf etishni maqsad qiladi.

D.V.Valko aylanma iqtisodiyot yoki yopiq sikl iqtisodiyotini an'anaviy iqtisodiy mexanizmga muqobil bo'lgan, resurslarni tiklash va ularni qiymat yaratish zanjirining barcha bosqichlarida yopiq holda foydalanishga asoslangan iqtisodiyot sifatida ta'riflaydi. Uning fikricha, aylanma iqtisodiyot konsepsiyasi iqtisodiy faoliyatni resurslarni qayta tiklash va ijtimoiy-iqtisodiy tizim salomatligini saqlash tamoyillariga asoslashni nazarda tutadi, bu esa barcha darajalarda — uy xo'jaliklari va kichik korxonalaridan tortib global iqtisodiyotgacha — samaradorlikni ta'minlash imkonini beradi.

Ellen MakArtur jamg'armasi tomonidan ishlab chiqilgan yopiq sikl iqtisodiyoti ta'rifi: yopiq sikl iqtisodiyoti ijobiy ijtimoiy foydalarga urg'u berib, o'sishni qayta taqsimlashga yo'naltirilgan. Bu iqtisodiy faoliyatni cheklangan resurslar iste'molidan bosqichma-bosqich ajratishni va chiqindilarni tizimdan chiqarib tashlashni anglatadi. Energiyaning qayta tiklanuvchi manbalariga o'tishga tayangan holda, aylanma model uchta asosiy tamoyilga tayanadigan iqtisodiy, tabiiy va ijtimoiy kapitalni yaratadi: chiqindilar va ifloslanishga yo'l qo'ymaslik; mahsulotlar va materiallarni doimiy foydalanishda ushlab turish; tabiiy tizimlarni regeneratsiya qilish.

#### 1-rasm. "Sirkulyar iqtisodiyot" tushunchasini ta'riflashga yondashuvlar

Sirkulyar iqtisodiyot moliyaviy, ishlab chiqarish, inson, ijtimoiy yoki tabiiy kapitalni qayta tiklashga intiladi [3]. Bu tovar va xizmatlar oqimining ko'payishini ta'minlaydi hamda texnik va biologik materiallarning uzluksiz oqimini tashkil etishga yordam beradi. Tobora ko'proq mamlakatlar o'zlarining yangi rivojlanish modeli sifatida yopiq sikl iqtisodiyotini afzal ko'rmoqdalar. Mamlakatlar o'zlarining tegishli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini inobatga olgan holda turli sohalarda sirkulyar iqtisodiyot konsepsiyasini qabul qilmoqdalar. Germaniya bu konsepsiyani **1990-yillardan** boshlab o'zining ekologik siyosatiga joriy etdi. Daniya va Birlashgan Qirollik chiqindisiz ishlab chiqarish jamiyatini yaratishga intilgan holda uni chiqindilarni boshqarishda joriy etdilar. Xitoy eko-industrial parklarni loyihalashda ushbu strategiyani qabul qildi. Yevropa Ittifoqi ham **2015-yilda** yopiq sikl iqtisodiyoti bo'yicha Harakatlar rejasini taqdim etdi. O'sha vaqtdan buyon Harakatlar rejasini Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarning yopiq sikl iqtisodiyotiga o'tishini tezlashtirdi. Aylanma iqtisodiyot tamoyillari **2-rasmda** keltirilgan.



2-rasm. Aylanma iqtisodiyot tamoyillari

Sirkulyar iqtisodiyotning ekologik afzalliklari

**Issiqxona gazlari emissiyasining kamayishi.** Yopiq sikl iqtisodiyotining asosiy maqsadlaridan biri sayyora ekotizimlariga ijobiy ta'sir ko'rsatish, tabiiy resurslardan ortiqcha foydalanish holatlarini kamaytirish hamda ekologik barqarorlikni ta'minlashdan iborat [4]. Sirkulyar iqtisodiyot issiqxona gazlari emissiyasini va xomashyodan foydalanish hajmini kamaytirish, qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish hamda chiziqli iqtisodiyot modeli natijasida yuzaga keladigan salbiy tashqi ta'sirlarni yumshatish imkoniyatiga ega. Uzoq muddatli istiqbolda sirkulyar iqtisodiyot qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish orqali atrof-muhitga ta'sirni kamaytirishga xizmat qiladi.

Qayta foydalanish va dematerializatsiya tufayli kamroq materiallar va ishlab chiqarish jarayonlari talab etiladi, chunki qoldiqlar qimmatli hisoblanadi va jarayonda qayta foydalanish uchun maksimal darajada o'zlashtiriladi [7]. Energiya samarali va zaharli bo'lmagan materiallar ustuvor tanlov bo'lganligi sababli, tegishli ishlab chiqarish va qayta ishlash jarayonlari ham tanlanadi.

Ellen MakArtur jamg'armasi tadqiqotlariga ko'ra, sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini rivojlantirish 2030-yilga borib karbonat angidrid emissiyasini 2020-yil darajasiga nisbatan ikki baravargacha kamaytirish imkonini berishi mumkin.

Sog'lom va barqaror tuproqlar. Dehqonchilik tizimidagi sirkulyar iqtisodiyot tamoyillari muhim ozuqaviy moddalarning anaerob jarayonlar yoki kompostlash orqali tuproqqa qaytarilishini kafolatlaydi, bu esa yer va tabiiy ekotizimlarni ekspluatatsiya qilishni yengillashtiradi. Shunday qilib, "chiqindilar" tuproqqa qaytarilishi natijasida tuproq sog'lomroq va moslashuvchanroq (elastikroq) bo'ladi, bu qoldiqlar miqdorini kamaytirishdan tashqari, uni yanada barqaror qiladi, bu esa uni o'rab turgan ekotizimlarda ko'proq muvozanatni ta'minlaydi.

Bundan tashqari, butun dunyo bo'ylab tuproq degradatsiyasi yiliga taxminan 40 milliard AQSH dollariga tushayotgani va o'g'itlardan foydalanishning ko'payishi, bioxilma-xillikning yo'qolishi hamda noyob landshaftlarning yo'qolishi kabi yashirin xarajatlarga ega bo'lgani sababli, aylanma iqtisodiyot ham tuproqlar, ham iqtisodiyot uchun haqiqatan ham foydali bo'lishi mumkin.

Ellen MakArtur jamg'armasi tadqiqotiga ko'ra, Yevropa oziq-ovqat tizimlarida ishlayotgan yopiq sikl iqtisodiyoti modeli sun'iy o'g'itlardan foydalanishni 80 foizga kamaytirishi va, binobarin, tuproqning tabiiy muvozanatiga o'z hissasini qo'shishi mumkin.

Sirkulyar iqtisodiyotning iqtisodiy afzalliklari:

Iqtisodiy o'sishning yuqori salohiyati. McKinsey hisobotiga ko'ra, mahsulot va materiallarning funktsionalligini oshirish hisobiga arzonroq ishlab chiqarish bilan birga yopiq siklning yangi operatsiyalaridan keladigan daromadlarning ko'payishi YalMning oshishiga va natijada iqtisodiy o'sishga olib kelishi mumkin.

Tejalgan resurslarning ko'payishi. Chiziqli yondashuvda keng tarqalgan xomashyo qazib olish bilan solishtirganda, sirkulyar iqtisodiyot modeli materiallarning ko'proq darajada (70 % gacha) tejalishiga olib kelishi mumkin. Dunyo aholisi va o'rta sinfning o'sishi tufayli materiallarga bo'lgan umumiy talab oshishini hisobga olgan holda, yopiq sikl iqtisodiyoti materiallarga bo'lgan ehtiyojning pasayishiga olib keladi, chunki u chiqindilarning to'planishiga yo'l qo'ymaydi va ikkilamchi qayta ishlashdan qochadi, bunda materiallar sikllarining davomiyligini oshirishga alohida e'tibor qaratiladi [6]. Atrof-muhitga kelsak, bu yangi materiallarni qazib olishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yanada ko'proq ifloslanishning oldini olish imkonini ham beradi.

Bandlikning o'sishi. "Jahon iqtisodiy forumi"ga muvofiq, yopiq iqtisodiyot modelini rivojlantirish yangi tartibga solish (jumladan, soliqqa tortish) va mehnat bozorlarini tashkil etish bilan birgalikda mahalliy aholining boshlang'ich va yarim malakali darajadagi ish o'rinlarida ko'proq bandligini ta'minlashi mumkin. Bundan tashqari, bir nechta yetakchi konsalting firmalari mutaxassislari tomonidan tayyorlangan ExTax soliq hisobotida ham yangi ish o'rinlarini yaratish uchun yopiq sikl iqtisodiyotining salohiyati haqida xulosa qilingan.

Ellen MakArtur va McKinsey jamg'armasi tomonidan olib borilgan yana bir tadqiqotda ham yopiq iqtisodiyot modeliga o'tilganda bandlikning o'sishidagi o'zgarishlar haqida xulosa qilingan. Tadqiqotda aytilishicha, ushbu yangi ish o'rinlari quyidagilarni ko'paytirish orqali yaratiladi:

Qayta ishlash va ta'mirlash amaliyotlari, bunda transformatsiya/ishlab chiqarish bosqichlarida uzoq muddatli va oson qismlarga ajraladigan mahsulotlar hamda materiallarni ishlab chiqarish uchun yangi dizaynerlar va muhandis-mexaniklarni jalb qilish mumkin.

Innovatsion jarayonlar va yangi biznes modellari hisobiga yangi korxonalar (va sohalar) soni.

Pastroq narxlardagi iste'mol va xarajatlar.

Aylanma iqtisodiyotning biznes uchun afzalliklari:

Foyda olishning yangi imkoniyatlari. Bunday imkoniyatlarga resurslar uchun xarajatlarni kamaytirish va ba'zi hollarda yopiq sikl iqtisodiyoti modeliga o'tayotgan korxonalar erishishi mumkin bo'lgan mutlaqo yangi foyda oqimlarini yaratish orqali erishish mumkin. Foyda olish imkoniyatlari yangi bozorlarda o'ynash, chiqindilar va energiyani qisqartirish hisobiga xarajatlarni kamaytirish, shuningdek, yetkazib berishning uzluksizligini ta'minlash tufayli paydo bo'lishi mumkin.

O'zgaruvchanlikning kamayishi va yetkazib berishlarning ishonchilligi. Sirkulyar iqtisodiyot modeliga o'tish ishlatiladigan xomashyo miqdorini kamaytirishni anglatadi. Buning o'rniga ko'proq qayta ishlangan (yoki hatto qayta ishlatiladigan yoki oson o'zgartiriladigan) resurslar ishlatiladi, ularga ishchi kuchi xarajatlarning yuqori ulushi to'g'ri keladi, natijada kompaniyalar xomashyo narxlarining o'zgaruvchanligiga kamroq bog'liq bo'ladi.

Yangi xizmatlarga bo'lgan talab. Ellen MakArtur jamg'armasi hisobotiga ko'ra, yopiq sikl iqtisodiyoti modeli yangi xizmatlar va ishga joylashishning yangi imkoniyatlariga bo'lgan talabni keltirib chiqarishi mumkin, masalan:

- ekspluatatsiya qilish muddati tugagan mahsulotlarni tizimga qaytarishni qo'llab-quvvatlovchi chiqindilarni yig'ish va teskari logistika bo'yicha kompaniyalar;

- xizmat muddatini uzaytirish yoki mahsulotlardan yanada samarali foydalanishga yordam beradigan mahsulotlar sotuvchilari va sotuv platformalari;

- detallar va komponentlarni tiklash hamda ixtisoslashtirilgan bilimlarni taklif qiluvchi mahsulotlarni tiklash.

Shunday qilib, yopiq iqtisodiyot modelini amalga oshirish atrof-muhit, iqtisodiyot va biznes uchun bir qator afzalliklarga ega. Shunga qaramay, ushbu modelning sekin o'sishi sabablarini izohlab beruvchi bir nechta sabablar mavjud.

Yopiq iqtisodiyot modeliga o'tish yo'lidagi iqtisodiy to'siqlar:

- ijtimoiy va ekologik tashqi ta'sirlar narxlarda hisobga olinmaydi;

- xomashyo narxlarini o'zgaruvchan, narxi past bo'lgan muqobil xomashyolar hamda yaxshi sifatli ikkilamchi resurslar raqobatbardosh emas;

- sirkulyar iqtisodiyotning biznes modellarini ishlab chiqish ancha murakkab, chunki aksariyat investorlar hali ham chiziqli iqtisodiyot mantig'i doirasida faoliyat yuritadilar va ba'zida dastlabki investitsiyalar talab qilinadi;

- texnik bilimlarga yoki axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasidagi bilimlarga ega malakali mutaxassislarning yetishmasligi.

Yopiq iqtisodiyot modeliga o'tish yo'lidagi institutsiyaviy to'siqlar:

- amaldagi iqtisodiy tizim asosan chiziqli iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashgan bo'lib, aylanma iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan tadbirkorlik subyektlari bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha institutsional mexanizmlarni yanada takomillashtirish talab etiladi.

- yangi biznes modellarini tatbiq etish va rivojlantirishda me'yoriy-huquqiy bazani bunday innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashga mos ravishda yanada takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.



- ko'plab korxonalar eski va/yoki mustahkam aloqalarga tayanadi, bu esa yangi aloqalar yaratishni qiyinlashtiradi;

- ko'plab kompaniyalar hali ham qisqa muddatli qiymat yaratishga yo'naltirilgan maqsadlar va baholash tizimlariga ega, vaholanki, yopiq sikl iqtisodiyoti modeli — bu uzoq muddatli qiymat yaratish modelidir;

- YalM indeksi har ikkala sohada qiymat yaratishga to'sqinlik qiluvchi ijtimoiy va ekologik tashqi ta'sirlarni hisobga olmaydi.

Ushbu mavzu bo'yicha turli nuqtayi nazarlarni integratsiyalashga qaratilgan Shvetsiya tadqiqoti yopiq iqtisodiyot modeli yo'lidagi asosiy to'siqlarni moliyaviy, tarkibiy, operatsion, xulq-atvor va texnologik to'siqlarga ajratish mumkinligini taxmin qiladi. Birinchi to'siq moliyaviy foyda va uning foydaliligini o'lchash muammosi bilan bog'liq. Keyingi "strukturaviy (tuzilmaviy)" to'siq kompaniyalar ichida sirkulyar iqtisodiyotga rioya qilinishi uchun kim mas'ul ekanligi noaniqligi bilan bog'liq. O'z navbatida, "operatsion" muammolar ishlarni yuritish va qiymat yaratish zanjirida jarayonlar ustidan nazoratni saqlab turishning murakkabligini ifodalaydi.

Oxirgi to'siq texnologik kelib chiqishga ega bo'lib, mahsulotlar va ishlab chiqarish/qaytarish tizimlarini o'zgartirish hamda qayta loyihalash zarurati bilan bog'liq. Bu ehtiyojlar pirovard natijada mahsulotning raqobatbardoshligi va sifatini saqlab qolish qobiliyati bo'yicha xavotirlarni keltirib chiqaradi. Shunday qilib, sirkulyar iqtisodiyotning mohiyati shundaki, u ishlab chiqarilgan yoki foydalanilgan barcha narsalar tizim ichida to'liq qayta ishlanadigan yopiq tabiiy tizimni takrorlashga intiladi. Uning maqsadi — tovar yoki xizmatning hayotiy siklidagi har bir jarayondan maksimal samaradorlikni ta'minlashdir. Sirkulyar iqtisodiyot ikkilamchi resurslar ustuvor bo'lgan taqsimot tizimiga ta'sir ko'rsatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, yashil iqtisodiyot tamoyillarini amaliyotga joriy etish va barqaror rivojlanishni ta'minlash bugungi kunda nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning ham muhim omiliga aylanmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, qayta ishlash texnologiyalarini rivojlantirish hamda ekologik mas'uliyat tamoyillariga asoslangan boshqaruv mexanizmlarini qo'llash iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan bir qatorda atrof-muhit muhofazasini ham ta'minlaydi. Shu bois O'zbekistonda ham "O'zbekiston – 2030" strategiyasi hamda yashil iqtisodiyot va resurs tejamkor texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari doirasida ushbu yo'nalishdagi islohotlarni izchil davom ettirish maqsadga muvofiqdir. Natijada ekologik barqarorlik, iqtisodiy raqobatbardoshlik va aholi farovonligini ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy rivojlanish modelini shakllantirish uchun mustahkam asos yaratiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF–21-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-8050769>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
3. Golovina T.A. Ilmiy hajmdor korxonalarni rivojlantirishning yashil strategiyasining konseptual jihatlari / T.A.Golovina, A.V. Polyaniin // Ishlab chiqarish tashkilotchisi. 2021. 29-jild. 4-son, 85-95 B.
4. Golovina T.A. Arktika zonasini rivojlantirishni davlat tomonidan boshqarishning ijtimoiy-ekologik-iqtisodiy konsepsiyasi / T.A.Golovina, S.M.Saxarova // To'plamda: Zamonaviy iqtisodiyotning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. Mas'ul muharrir O.A.Gorbunova. Samara, 2021. 273-280 B.
5. Demchenko A.A. Sirkulyar iqtisodiyot va barqaror rivojlanish: ekologiyalashtirish va ikkilamchi resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'lida / A.A.Demchenko, G.A.Yesenkova, T.P.Aldoxina // XXI asr ilmiy tadqiqotlarining dolzarb yo'nalishlari: nazariya va amaliyot. 2020. 8-jild. 3-son (50), 105-109 B.
6. Kuksova I.V. Tabiatdan foydalanish iqtisodiyotini boshqarishda xizmat ko'rsatish sohasining tijorat afzalliklari / I.V.Kuksova, Yu.N.Stepanova, T.A.Golovina // Tabiiy-gumanitar tadqiqotlar. 2022. 40 (2) –son, 134-140 B.
7. Mixalenko Ye. Sirkulyar iqtisodiyot kelajak iqtisodiyoti modeli sifatida / Ye. Mixalenko, D. Klimova, I. Mankovskiy // Bank xabarnomasi. 2020. 12 (689) –son, 42-51 B.
8. Sotnikova O.A. Sirkulyar iqtisodiyot xo'jalik yurituvchi subyektlarni barqaror rivojlantirishning harakatlantiruvchi kuchi sifatida / O.A.Sotnikova, Ye.A.Jidko, M.M.Alferov // Janubi-g'arbiy davlat universiteti xabarlar. Turkum: Iqtisodiyot. Sotsiologiya. Menejment. 2021. 11-jild. 3-son, 115-124 B.
9. Urumova F.M. Sirkulyar iqtisodiyot barqaror rivojlanish mexanizmi sifatida / F.M.Urumova // Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali. 2020. 6-jild. 1-son, 19-21 B.
10. Kaplyuk Ye.V. Sirkulyar iqtisodiyotning biznes modellari va sanoatni innovatsion rivojlantirishda raqamli texnologiyalar / Ye.V.Kaplyuk, N.V.Nizov // Bilimlar akademiyasi axborotnomasi. – 2022. –50 (3)-son, 127-132 B.
11. Matveeva L.G. Neosanoatlashtirish sharoitida mamlakat xatarlarini tahlil qilishda sirkulyar iqtisodiyot usullari ansamblini qo'llash / L.G.Matveeva, D.S.Gridnev // Tabiiy-gumanitar tadqiqotlar. – 2022. –39 (1)-son,. 179-187 B.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)